Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	




Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	



MILLIY BRENDLARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI TASHQI BOZORLARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH



Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Korporativ boshqaruv yo'nalishi

Annotatsiya: Milliy brendlar tashqi bozorlarda mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ular mahsulot sifatini bilan birga, mamlakat madaniyati va imidjini ham aks ettiradi. O'zbekiston eksport salohiyatini kengaytirish uchun milliy brendlarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi. Tadqiqotda milliy brendlar orqali xalqaro bozordagi muvaffaqiyat omillari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy brend, raqobatbardoshlik, tashqi bozor, eksport salohiyati, mahsulot sifati, xalqaro savdo, marketing strategiyasi, O'zbekiston, brend imidji, milliy mahsulotlar.

Abstract: National brands are a key factor in increasing product competitiveness in foreign markets. They represent not only product quality but also the culture and image of the country. Developing national brands is considered one of the priority directions for expanding Uzbekistan's export potential. This study analyzes the success factors in international markets through the lens of national branding.

Key words: national brand, competitiveness, foreign market, export potential, product quality, international trade, marketing strategy, Uzbekistan, brand image, national products.

Аннотация: Национальные бренды являются важным фактором повышения конкурентоспособности продукции на внешних рынках. Они отражают не только качество продукции, но и культуру и имидж страны. Для расширения экспортного потенциала Узбекистана развитие национальных брендов считается одним из приоритетных направлений. В исследовании анализируются факторы успеха на международных рынках через призму национальных брендов.

Ключевые слова: национальный бренд, конкурентоспособность, внешний рынок, экспортный потенциал, качество продукции, международная торговля, маркетинговая стратегия, Узбекистан, имидж бренда, национальная продукция.

KIRISH

Milliy mahsulotlarni xorijiy bozorlar e'tiboriga havola etishda ularning nafaqat sifati, balki brend sifatida tanilganligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida davlatlar o'z mahsulotlarini tashqi bozorlarga muvaffaqiyatli olib chiqish uchun ularni milliy brend sifatida shakllantirishga intilmoqda. Mahsulotning qayerda ishlab chiqarilgani, uning ortida qanday madaniyat, tarix va qadriyatlar turgani tobora muhim o'rin egallamoqda.

Milliy brend – bu mahsulot yoki xizmat orqali ma'lum bir davlat haqidagi tasavvurni shakllantiruvchi kuchli vositadir. Bunday brendlar nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki mamlakat imidjini mustahkamlashga, madaniy va iqtisodiy o'ziga xoslikni namoyish etishga xizmat qiladi. Shu sababli, milliy brendlarni yaratish, ularni targ'ib qilish va ularning barqarorligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston ham o'z milliy mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish, ularni xalqaro maydonda raqobatbardosh qilish yo'lida muayyan natijalarga erishmoqda. Mamlakatimizda yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi va charm sanoati mahsulotlarini xorijiy bozorlarga yetkazib berishda milliy brendlar



yuzaga kelmoqda. Masalan, “O‘zbekim textile”, “Art Soft”, “Atlas” kabi kompaniyalar o‘z mahsulotlari orqali mamlakat brendini namoyon etmoqda. Biroq, hali ko‘plab brendlar xorijiy bozorlarda yetarlicha tanilmagan.

Tashqi bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun brendning nomi, dizayni, sifat kafolati, ishonchliligi va eng muhimi – milliylikni aks ettirgan jihatlari muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Milliy brendni shakllantirish nafaqat iqtisodiy foyda, balki eksport salohiyatini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mamlakatni jahon iqtisodiy makonida tanitish imkonini ham beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy brendlarni shakllantirish va ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta‘minlash bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar olib borilgan. Milliy brendlar konsepsiyasi xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda uzoq yillardan beri o‘rganib kelinadi. Dunyoga mashhur iqtisodchi va marketing mutaxassisi Philip Kotler o‘zining “Marketing Places” asarida shunday deydi: “Mamlakatning iqtisodiy muvaffaqiyati ko‘pincha uning brendi qanday shakllantirilganiga bog‘liq bo‘ladi. Davlatlar ham korxonalar kabi o‘z brendlariga ega bo‘lishi kerak”[1]. Bu fikr milliy brendlar orqali mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosatini ilgari surish muhimligini anglatadi. Kotlarning ushbu yondashuvi ayni haqiqat. Bugungi raqobat kuchli bozor muhitida mahsulotning sifati bilan birga uning ortidagi “brend hikoyasi” ham katta ahamiyatga ega. “Made in Uzbekistan” degan belgi bilan dunyo bozoriga chiqayotgan mahsulotlarimiz ham shunchaki tovar sifatida emas, balki mamlakatimizning imidji, qadriyatlari, va ishonchliligining ramzi sifatida ko‘riladi. “Made in Uzbekistan” brendi bilan mahsulotlarni targ‘ib qilish uchun xalqaro ko‘rgazmalarga mahalliy ishlab chiqaruvchilar jalb qilinmoqda. “Made in Uzbekistan” brendi ostida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro ko‘rgazmalarga jalb qilish – bu juda to‘g‘ri yo‘l. Chunki har bir ko‘rgazma – bu imkoniyat, mahsulotni tanitish, yangi bozorlarni topish va xorijiy xaridorlarda ishonch uyg‘otish uchun. Mahsulot qanchalik sifatli bo‘lmasin, agar uni dunyoga ko‘rsatmasak, uni hech kim tanimaydi. Shuning uchun ko‘rgazmalar orqali nafaqat mahsulot, balki butun O‘zbekiston brendi targ‘ib qilinmoqda. Shu yo‘l bilan eksport ham, mahalliy ishlab chiqaruvchining o‘zi ham o‘sadi. “Made in Uzbekistan” brendi ostida yaratilgan mahsulotlar sifatli, ekologik toza, mehnat resurslariga boy va tabiiy xomashyoga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Biroq, mazkur brend hali xalqaro maydonda keng tanilmagan. 2020-yildan boshlab, hukumat tashabbusi bilan “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” brendini ilgari surishga doir kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, bu jarayon sekin kechmoqda.

Mahalliy adabiyotlarda esa, A. Mullajonov va N. Usmonovlarning (2020) tadqiqotlarida O‘zbekiston mahsulotlarini xorijiy bozorlarda ilgari surishda branding va marketing strategiyalarining kuchaytirilishi zarurligi ko‘rsatiladi. Ular milliy mahsulotlarni xalqaro miqyosda tanitish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, mahalliy korxonalar uchun eksportni yo‘naltirilgan branding siyosatini ishlab chiqishni taklif etishadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga doir milliy va xalqaro ilmiy adabiyotlar, iqtisodiy tahlillar, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va sohaga oid ekspert xulosalari o‘rganildi. Ta‘rifiy (deskriptiv) tahlil asosida milliy brendlarni shakllantirishning nazariy asoslari, uning tashqi bozordagi o‘rni va ahamiyati ochib berildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli orqali rivojlangan davlatlar tajribasi bilan O‘zbekistondagi mavjud vaziyat taqqoslab o‘rganildi. Xususan, “Made in Uzbekistan” brendini rivojlantirishda qo‘llanilayotgan mexanizmlar Germaniya, Janubiy Koreya va Turkiya kabi davlatlardagi samarali amaliyotlar bilan solishtirildi. Shu orqali milliy brendni shakllantirishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy makondagi faol ishtiroki ortib borayotgan bir paytda, milliy mahsulotlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta‘minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu jarayonda milliy brendlarni shakllantirish va ularga ijobiy imidj berish strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu bo‘limda O‘zbekiston sharoitida milliy brendlar holati, ular bilan bog‘liq muammolar, xorijiy davlatlar tajribasi, shuningdek, amalga oshirilayotgan islohotlar asosida olingan tahliliy natijalar yoritiladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston bir qator eksportbop mahsulotlari orqali xalqaro bozorlarda tanilmoqda. Jumladan, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari, charm-poyabzal va meva-sabzavotlar yo‘nalishlarida sezilarli eksport ko‘rsatkichlariga erishilmoqda. Biroq, ushbu mahsulotlar hali to‘laqonli brend darajasiga ko‘tarilmagan, ularning ko‘pchiligi “brendsiz” eksport qilinmoqda yoki chet eldagi distribyutorlar brendi ostida sotilmoqda. Bu esa qo‘shimcha qiymatning katta qismini xorijiy tomon egallashiga olib kelmoqda.



Xalqaro brendlar bilan raqobatlashish uchun o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari nafaqat sifatli bo'lishi, balki original dizayn, zamonaviy marketing, innovatsion yondashuv va ishonchli mijozlar xizmati bilan ham ajralib turishi lozim. Shu bilan birga, xorijiy bozorlarda reklama, PR kampaniyalar, ko'rgazmalar va digital marketing vositalaridan foydalanish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Dunyo amaliyotida milliy brendlarni muvaffaqiyatli shakllantirgan davlatlar qatoriga Janubiy Koreya, Turkiya, Italiya va Germaniyani kiritish mumkin. Masalan, Janubiy Koreya "Samsung", "Hyundai" kabi texnologik gigantlar orqali nafaqat mahsulot, balki butun mamlakat brendini yaratishga erishgan. Turkiya esa "Turquality" dasturi orqali davlat tomonidan mahalliy brendlarni xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'ygan. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida milliy brendlarning o'rni katta. O'zbekistonning ko'plab brendlari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham raqobatbardosh bo'lib, mamlakatning iqtisodiy imidjini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, UzAuto Motors (eski "GM Uzbekistan") brendi O'zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillarni nafaqat mahalliy bozorga, balki xorijiy bozorlarga ham eksport qilmoqda. Bu brendning "Lacetti", "Cobalt" va "Spark" kabi mashhur modellari nafaqat mintaqaviy bozorlar, balki Yevropa va Osiyo bozorlarida ham o'z o'rnini topgan.

Shuningdek, Uzbekistan Airways milliy aviakompaniyasi, O'zbekistonning xalqaro aloqalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Kompaniya xizmatlari nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham keng tarqalgan va mamlakatning iqtisodiy integratsiyasini oshirishga yordam beradi.

O'zbekistondagi Qizilqum Cement brendi esa sement sanoatida yetakchi o'rin egallab, o'zining sifati mahsulotlari bilan ichki bozorga va chet elga eksport qilinadi. Bu kabi brendlar mamlakatning sanoat sohasida yuksalishga va xalqaro bozorga mustahkam kirishga yordam bermoqda.

Shu tarzda, milliy brendlar faqatgina mahsulotlar ishlab chiqarish bilan cheklanmay, balki mamlakatning iqtisodiy va madaniy imidjini shakllantiradi, eksport salohiyatini oshiradi va xalqaro aloqalarini mustahkamlaydi. O'zbekistonda ham ana shunday davlat dasturlarini ishlab chiqish, mahsulotlar eksportiga marketing va dizayn bo'yicha subsidiya ajratish, brendlarni xalqaro ko'rgazmalarga olib chiqishda logistika xarajatlarini qoplash kabi yondashuvlar katta samara berishi mumkin. Shuningdek, aksariyat korxonalar xorijiy tillarda zamonaviy veb-saytga ega emas, ijtimoiy tarmoqlarda faol emas, packaging (qadoqlash) sifati xalqaro standartlarga javob bermaydi. Bu esa raqobatbardoshlikni pasaytiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan brendlashtirish yo'nalishida bir qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

"O'zstandart" agentligi tomonidan eksport mahsulotlari uchun maxsus sertifikatlar joriy etilmoqda. Birinchidan, bu sertifikatlar O'zbekiston mahsulotlarining sifatiga bo'lgan ishonchni oshiradi, chunki xalqaro bozorda xaridorlar ko'pincha sifat kafolatiga ega mahsulotlarni tanlaydi. Ikkinchidan, bunday sertifikatlash mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonini tezlashtiradi va natijada raqobatbardoshlikni oshiradi. Uchinchidan, bu tizim orqali mahsulotlarimiz xorijiy bojxona va nazorat organlari tomonidan tezroq va osonroq qabul qilinadi, bu esa logistika va yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi. Shuningdek, sertifikatlash jarayoni tadbirkorlarni uzluksiz sifat nazoratini yo'lga qo'yishga undaydi, bu esa nafaqat tashqi bozor, balki ichki bozor uchun ham foydalidir. Shu sababli, bu tizimni samarali yo'lga qo'yish va uning shaffofligini ta'minlash milliy brendlarimizning jahon bozorida mavqeini yanada mustahkamlaydi.

2024-yilda O'zbekistonning umumiy eksport hajmi 26,95 milliard AQSh dollarini tashkil etdi[2].

Quyidagi jadvalda asosiy eksport bozorlarining eksportdagi ulushi foizlarda ko'rsatilgan (1-jadval):

1-jadval. Asosiy eksport bozorlarining eksportdagi ulushi foizlarda.

Davlat	Eksport hajmi (mlrd \$)	Eksportdagi ulushi (%)
Rossiya	3,7	13,7%
Xitoy	2,1	7,8%
Qozog'iston	1,4	5,2%
Turkiya	1,2	4,5%
Afg'oniston	1,1	4,1%
Fransiya	0,795	2,9%
Tojikiston	0,552	2,0%
Qirg'iziston	0,513	1,9%
AQSh	0,317	1,2%
Pokiston	0,300	1,1%
Boshqa davlatlar	15,98	59,3%
Jami	26,95	100%



Jadvalda O'zbekistonning 2024-yilda asosiy eksport bozorlariga yuborilgan milliy brendlar va ularning umumiy eksportdagi ulushlari ko'rsatilgan. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston eksportining 59,3% foizi "boshqa davlatlarga" yuborilgan, bu juda katta ulushni tashkil qiladi.

Eksportning eng katta qismini tashkil etuvchi davlatlar orasida Rossiya 13,7% ulush bilan birinchi o'rinda turadi. Rossiya bilan savdo aloqalari O'zbekiston uchun juda muhim va keng ko'lamli, chunki u nafaqat iqtisodiy, balki madaniy aloqalar ham o'rnatilgan mamlakatdir.

Xitoy (7,8%), Qozog'iston (5,2%), va Turkiya (4,5%) kabi davlatlar ham O'zbekiston eksportida muhim rol o'ynaydi, chunki ular O'zbekiston mahsulotlariga talab yuqori bo'lgan va iqtisodiy jihatdan yaqin davlatlar hisoblanadi. Shuningdek, Afg'oniston (4,1%) va Fransiya (2,9%) kabi davlatlar ham O'zbekiston mahsulotlarini xarid qilmoqda, lekin ularning eksportdagi ulushi kichikroq. Bu davlatlar O'zbekiston uchun muhim, ammo ular O'zbekistonning tashqi savdosida nisbatan kichikroq rol o'ynaydi. Boshqa davlatlar deganda, O'zbekiston eksportining keng tarqalganligi va diversifikatsiyasi ko'zda tutiladi. Ushbu kategoriyaga boshqa ko'plab mamlakatlar kiradi, ular orasida Yevropa davlatlari, Amerika Qo'shma Shtatlari va boshqa rivojlanayotgan davlatlar mavjud.

Ushbu jadval, O'zbekistonning eksport bozorlarining diversifikatsiyasini va har bir davlat bilan savdo aloqalarining ahamiyatini ko'rsatadi. Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va Turkiya kabi mamlakatlar bilan bo'lgani kabi, boshqa davlatlar bilan ham savdo aloqalarining o'sishi eksport hajmini yanada ko'paytirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida O'zbekiston milliy brendlarini shakllantirish jarayoni, ularning tashqi bozorlardagi o'rni va raqobatbardoshlikka ta'siri har tomonlama o'rganildi. Xulosa tariqasida aytish mumkinki, milliy brendlar mamlakatning iqtisodiy imijini shakllantiradi, mahsulotlarni xorijiy bozorlar talablariga moslashtiradi hamda milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi. So'nggi yillarda O'zbekiston eksporti geografik jihatdan kengayib bormoqda, biroq milliy brend sifatida tan olingan mahsulotlar soni cheklanganligicha qolmoqda.

Milliy mahsulotlarning xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli raqobatlasha olishi uchun faqat mahsulot sifati emas, balki ularning taqdimoti, qadoqlanishi, brend konsepsiyasi, reklama strategiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchilarning marketing, dizayn, xalqaro savdo va huquqiy masalalar bo'yicha bilimlari yetarli emasligi ham ularga xalqaro bozorlarda faol harakatlanishda to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Milliy brendlarni targ'ib qilish bo'yicha davlat siyosatini kuchaytirish – brendlashgan mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalarni subsidiya, soliq imtiyozlari va grantlar orqali qo'llab-quvvatlash.

2. Brend menejment va xalqaro marketing bo'yicha o'quv kurslari tashkil etish, kichik va o'rta biznes vakillarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.

3. Xalqaro ko'rgazma va savdo yarmakalarida faol ishtirokni ta'minlash, eksportchilarni xorijiy bozorlarga chiqarish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish.

4. Milliy mahsulotlarni sifat jihatidan xalqaro standartlarga moslashtirish, sertifikatlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va barqarorlik tamoyillariga amal qilish.

Ushbu takliflarning amalda qo'llanilishi nafaqat O'zbekiston brendlarining xorijda tan olinishiga, balki iqtisodiy o'sishga, ish o'rinlarining ko'payishiga va milliy mahsulotlarga bo'lgan ishonchning ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kotler, P. (1993). Marketing Places: Attracting Investment, Industry, and Tourism to Cities, States, and Nations. Free Press.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Komiteti. (2024). O'zbekistonning tashqi savdosiga oid statistik ma'lumotlar. <https://www.stat.uz>
3. Islambekov, A. (2023). Milliy brendlarni shakllantirish va raqobatbardoshlikni oshirish. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti.
4. Shamsiev, R., & Tursunov, D. (2022). Global savdo va iqtisodiy integratsiya: O'zbekistonning roli. Toshkent: Iqtisodiyot va tadbirkorlik universiteti nashriyoti.
5. Xodjaev, T. (2021). O'zbekistonning eksport siyosati va milliy brendlar. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
6. Abdullayev, A. & Karimov, D. (2022). Global iqtisodiyotda milliy brendlarning o'rni. O'zbekiston iqtisodiyot va biznes jurnali, 15(2), 120-132.
7. Murodov, E. (2021). O'zbekistonning eksport strategiyalari va milliy brendlarni rivojlantirish. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya universiteti nashriyoti.
8. Shukurov, F. (2023). Xorijiy bozorlar uchun milliy brendlarni ishlab chiqish usullari. Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.



9. Umarov, N. (2023). O'zbekistonning eksport tarmog'i: strategiyalar va istiqbollar. Journal of International Economics, 7(4), 95-104.
10. Jumayev, I. & Rakhmanov, B. (2020). Milliy brendlarni shakllantirishning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti, 8(1), 45-52.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>